

O'zbekiston

Abdulla Oripov



Abdulla Oripov
1941–2016

Abdulla Oripov – O'zbekiston xalq shoiri. 1941-yil 21-martda Qashqadaryo viloyatida tug'ilgan. U O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi matnining muallifi. Shoirning she'rlari respublika matbuotida talabalik davridan boshlab chop etila boshlagan.

Abdulla Oripov ijodida ona Vatanimiz, xalqimiz va milliy qadriyatlarimizga bo'lgan muhabbat hamda sadoqat tuyg'ulari yuksak mahorat bilan tarannum etilgan.



O'qing.

Yurtim, senga she'r bitdim bu kun,
Qiyosingni* topmadim aslo.
Shoirlar bor, o'z yurtin butun –
Olam aro atagan tanho.
Ular she'ri uchdi ko'p yiroq,
Qanotida kumush diyori.
Bir o'lka bor dunyoda, biroq
Bitilmagan dostonidir* bori:
Faqat ojiz* qalamim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim.



Ko'klamingdan olib sururni*,
 Dovruq soldi ustoz Olimjon.
 G'afur G'ulom tuygan g'ururni
 Qilmoq mumkin dunyoga doston.
 O'lis tarix qadamim manim,
 O'zbekiston, Vatanim manim.
 Mangu yorug' maskanim manim,
 O'zbekiston, Vatanim manim.



qiyos – o'xshash
doston – nazmiy hikoya, qissa
ojiz – kuchsiz, zaif
surur – sevinch, quvonch



1. She'rdagi qaysi satrlar muallifning o'z yurtiga cheksiz muhabbatini ifodalagan? Ularni o'qing.
2. *Bir o'lka bor dunyoda, biroq Bitilmagan dostonidir bori* misralarini izohlang.
3. Muallif nima uchun Vatanni *mangu yorug' maskan* deb ataydi?



Maqollarni o'qing. Ma'nosini izohlang. Ulardan qaysi biri she'r mazmuniga mos keladi?

- Dunyoda Vatandan azizroq joy yo'q.
- Vatanisiz inson – kuysiz bulbul.



She'rne ifodali o'qishga tayyorlaning.

